


2019-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil 1-may holatiga ko'ra viloyatimizda 18,7 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiyligi (28,5 ming birlik) sonidagi ulushi 65,5 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 13,1 mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-may holatiga ularning ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-may holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (36,6 %) tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,3 % ga teng bo'ldi.

2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



- ◆ Savdo
- ◆ Tashish va saqlash
- ◆ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- ◆ Axborot va aloqa
- ◆ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- ◆ Boshqa turlar


Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a, 2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 614,0 mlrd. so'mga oshib, 3517,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida savdo xizmatlari 29,9 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ularning hajmi 169,9 mlrd. so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd.so'm



Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, ta'lim sohasidagi xizmatlarda shuningdek, shaxsiy xizmatlarda kuzatildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3517,8	109,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	183,0	103,7
Moliyaviy xizmatlar	447,5	164,8
Transport xizmatlari	896,8	102,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	819,3	100,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	100,3	108,4
Savdo xizmatlari	1051,2	104,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	98,6	100,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	163,6	124,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	49,8	101,7
Ijara xizmatlari	124,3	99,8
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	104,4	100,1
Shaxsiy xizmatlar	154,8	100,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	33,7	109,3
Boshqa xizmatlar	109,8	111,1

Viloyatimizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 164,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (124,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (109,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (108,4 %) qayd etildi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 1051,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 29,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 169,9 mlrd. so'mga oshdi.


Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 73,3 % ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosи, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 447,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 164,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi. Ularning moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 92,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlari tarkibi, %




2019-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 163,6 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 24,4 % ni tashkil etdi.



2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 8,4 % ga o'sdi, hajmi esa 19,2 mlrd. so'mga oshib, 100,3 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 80,2 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



2019-yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 924,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 107,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-85-35